



## 2019 yilning yanvar - avgust oylarida Qashqadaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


### RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **12461,0 mlrd. so'mni**, sanoat ishlab chiqarish indeksi **94,3 % ni** tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish **2277,2 mlrd. so'mni**, o'sish sur'ati **106,3 % ni** tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **18,3 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **20,9 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar - avgust oylarida viloyat korxonalaridan 12461,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 94,3 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida, sanoat ishlab chiqarish indeksi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda – 92,0 % ni, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida – 93,7 % ni, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda – 108,4 % ni va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda – 98,1 % ni tashkil etdi.

### 2019 yilning yanvar - avgust oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi







### ***Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.***

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019 yilning yanvar - avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5609,8 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 45,0 % ni tashkil etdi.

Tog' - kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'yicha o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan neft qazib olish hajmining – 93,6 % ni, gaz kondensati – 98,7 % ni, tabiiy gaz – 96,3 % ni, chaqiq tosh – 71,6 % ni, qum – 81,4 % ni tashkil etdi.

### ***Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik korxonalar tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish***

2018 yil yanvar – avgust oylarida ishlab chiqarilgan	Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2019 yil yanvar – avgust oylarida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
	<b>Tabiiy gaz, mln. kub. m.</b>		
22484,6		21650,1	96,3 ↓
	<b>Gaz kondensati, ming t.</b>		
938,7		926,6	98,7 ↓
	<b>Neft, ming t.</b>		
378,3		354,2	93,6 ↓
	<b>Shag'al, ming t.</b>		
121,9		143,0	117,3 ↑

### ***Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).***

2019 yilning yanvar - avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5177,2 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 41,5 % ni tashkil etdi.

O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida o'tgan yilning mos davriga nisbatan polietilen – 100,8 % ni, ip-kalava – 124,0 % ni, plastmassa quvurlar – 100,0 ni, paxta tolasi – 41,3 % ni, o'simlik yog'i (tozalangan) – 55,7 % ni va alkogol ichimliklar – 94,1 ni tashkil etdi.

### ***Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish***

<b>2018 yil yanvar – avgust oylarida ishlab chiqarilgan</b>	<b>Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari</b>	<b>2019 yil yanvar – avgust oylarida ishlab chiqarilgan</b>	<b>O'sish sur'ati, % da</b>
72851,0	<b>Paxta tolasi, t.</b> 	30080,0	41,3 ↓
16763,3	<b>O'simlik yog'i (tozalangan), t.</b> 	9342,1	55,7 ↓
12847,0	<b>Ip-kalava, t.</b> 	15927,0	124,0 ↑
2822,0	<b>Plastmass quvurlar, t.</b> 	2823,0	100,0 ↑

2018 yil yanvar – avgust oylarida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yil yanvar – avgust oylarida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
<b>Alkogol ichimliklar, ming. litr</b>			
1822,0		1714,0	94,1 ↓
<b>Polietilen, ming t.</b>			
87,2		87,9	100,8 ↑



***Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.***

2019 yil yanvar - avgust oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1568,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 12,6 %

ni) tashkil etdi.

***Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.***

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ko`rsatilgan xizmatlar hajmi 105,3 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ni) tashkil etdi.


O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig`ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlarning 2,1 % ga oshganligini, chiqindilarni yig`ish, ishlov berish, yo`qotish va utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlarning esa 1,4 % ga kamayganligini kuzatildi.



### ***Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.***


2019 yilning yanvar - avgust oylarida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 2277,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,3 % ni tashkil etdi, jami sanoatdagi ulushi esa 18,3 % ni tashkil etdi.

### ***2019 yilning yanvar - avgust oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari***



2019 yil yanvar - avgust oylarida iste'mol mollari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 57,0 %, nooziq-ovqat mahsulotlari - 43,0 %, va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari va pivo – 2,3 % tashkil etdi.


**Yanvar - avgust oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da**



**Shahar va tumanlarning sanoat ishlab chiqarishi.**

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Muborak tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 34,8 %), G'uzor tumani (19,8 %), Qarshi shahri (12,7 %), Nishon (10,5 %), Qarshi (4,1 %) va Koson (3,2 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


**2019 yilning yanvar - avgust oylarida shahar va tumanlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da**




Shu bilan birga eng kam ulush Mirishkor (1,1 %), Chiroqchi (1,2 %), Kasbi (1,2 %), Qamashi (1,5 %), Shahrisabz (1,6 %) va Yakkabog' (1,7 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Jami sanoat mahsulot ishlab chiqarish hajmidan Muborak tumani 4331,2 mlrd. so'mni, G'uzor tumani 2470,3 mlrd. so'mni, Qarshi shahri 1576,8 mlrd. so'mni va Nishon tumani 1310,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

**2019 yilning yanvar - avgust oylarida shahar va tumanlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmi**



**2019 yilning yanvar - avgust oylarida shahar va tumanlar bo`yicha sanoat ishlab chiqarish indeksi, 2018 yil yanvar - avgust oylariga nisbatan, % da**



Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo`yicha amalga oshirilayotgan izchil chora-tadbirlar natijasida Qarshi tumanida (2018 yil yanvar – avgust oylariga nisbatan 107,8 %), Kitob (105,5 %), Nishon (104,9 %), Dehqonobod (103,2 %), Yakkabog' (102,9 %) va Chiroqchi (102,6 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.



**2019 yil yanvar - avgust oylarida shahar va tumanlar bo`yicha  
istemol mollari ishlab chiqarish hajmi va o`shish sur`ati**


	Mrd. So`m	2018 yil yanvar – avgustga nisbatan o`shish, %
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	2277,2	106,3
Qarshi sh.	723,8	106,9
Shahrisabz sh.	168,0	104,5
tumanlar:		
G'uzor	56,3	105,5
Dehqonobod	36,5	107,0
Qamashi	109,6	107,1
Qarshi	129,9	106,1
Koson	205,3	101,3
Kitob	143,5	107,2
Mirishkor	50,1	107,2
Muborak	50,6	107,2
Nishon	54,6	107,3
Kasbi	63,7	107,1
Chiroqchi	134,5	107,4
Shahrisabz	184,8	108,1
Yakkabog`	166,0	106,9

Iste`mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi Shahrisabz tumanida (2018 yil yanvar - avgust oylariga nisbatan 108,1 % ni), Chiroqchi tumanida (107,4 % ni), Nishon tumanida (107,3 % ni), Kitob tumanida (107,2 % ni), Muborak tumanida (107,2 % ni), Mirishkor tumanida (107,2 ni) va Kasbi tumanida (107,1 % ni) tashkil etdi.

Shuningdek, Iste`mol tovarlari hajmining eng katta qismi Qarshi shahar (iste`mol tovarlari hajmida 31,8 %), Koson tumanida (9,0 %), Shahrisabz tumanida (8,1 %) va Shahrisabz shahrida (7,4 %) ishlab chiqarildi.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Muborak tumanida (50842,1 ming so'm), G'uzor tumanida (12344,0 ming so'm), Nishon tumanida (8773,6 ming so'm) va Qarshi shahrida (5799,1 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (3861,8 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

**2019 yilning yanvar – avgust oylarida shahar va tumanlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, ming so'mda**




### ***Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.***

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,7 % ga oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 20,9 % tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Kitob tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chiroqchi tumanida (91,7 %), Qamashi (89,2 %), Yakkabog` tumanida (81,0 %), Shahrisabz tumanida (78,3 %), Qarshi shahrida (62,8 %) va Shahrisabz shahrida (49,1 %) kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Muborak tumanida (1,4 %), G'uzor tumanida (2,2 %), Nishon tumanida (4,7 %) va Dehqonobod tumanida (10,7 %) kuzatildi.


### ***2019 yilning yanvar - avgust oylarida tumanlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ulushi, % da***



### **Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.**

Bugungi kunda viloyatda 3 mingdan ziyod sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 677 tasi Qarshi shahrida, 394 tasi Kitob tumanida, 290 tasi Yakkabog` tumanida, 273 tasi Shahrisabz shahrida, 259 tasi Qarshi tumanida, 243 tasi Chiroqchi tumanida, 180 tasi Qamashi tumanida, 163 tasi Shahrisabz tumanida, 162 tasi Koson tumanida, 139 tasi G`uzor tumanida, 119 tasi Nishon tumanida, 106 tasi Kasbi tumanida, 73 tasi Mirishkor tumanida, 61 tasi Dehqonobod tumanida va 58 tasi Muborak tumanida joylashgan.

### **2019 yil 1 sentyabr holatiga faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni**



Joriy yilning yanvar - avgust oylarida viloyatda 870 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 161 tasi Qarshi shahriga, mos ravishda Chiroqchi va Yakkabog` tumanlariga 85 tadan, 78 tasi Qarshi tumaniga, 74 tasi Kitob tumaniga, 66 tasi Shahrisabz tumaniga, 59 tasi Nishon tumaniga, 54 tasi Shahrisabz shahriga, 44 tasi Qamashi tumaniga, 40 tasi Kasbi tumaniga, 37 tasi G`uzor tumaniga, 31 tasi Koson tumaniga, 27 tasi Mirishkor tumaniga, 15 tasi Dehqonobod tumaniga va 14 tasi Muborak tumaniga to'g'ri keladi.

Sanoat statistikasi bo`limi

Tel.: (75) 221-32-36